

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: O'quvchilarga odob-axloq tushunchasini singdirish, jamiyat va oiladagi o'zini tutish madaniyatini shakllantirish, yaxshi va yomon xulq o'rtasida farqlash qobiliyatini rivojlantirish.

O'quvchilarga xulq-atvor qoidalarini misollar orqali tushuntirish, salomlashish, kattalarga hurmat ko'rsatish, do'stlar bilan samimiy va mehribon bo'lish, yordam berish, tartib-intizomga rioya qilish kabi yaxshi xulq-odob namunalari bilan tanishtirish, hikoya va maqollar, suhbat, rolli o'yinlar va rasmlar orqali bolalarda yaxshi odatlarga qiziqish uyg'otish.

Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarga xulq tushunchasini sodda shaklda o'rgatish.
 2. Yaxshi va yomon xulqlarni farqlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish.
 3. O'zaro hurmat, mehr-oqibat, rostgo'ylik shu insoniy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish va ularni kundalik hayotda qo'llashga o'rgatish.
 4. O'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish.
 5. Ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish.
-

Asosiy g'oyalar: Odob – insonni bezaydigan, hurmatli qiladigan xulq-atvor. Yaxshi odatlarni mustahkamlash, yomon odatlarni esa yo'qotish har bir bolaga baxt keltiradi. Mehribonlik, halollik, sabr-toqat, tartib-intizom, to'g'riso'zlik – yaxshi insonning belgilaridir.

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**1. Aqliy va tushunchaviy darajada:**

- Bola yaxshi va yomon xulqni farqlaydi.
- Odob, hurmat, rostgo'ylik, mehr-oqibatning ahamiyatini tushunadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O'ziga va boshqalarga hurmat hissi kuchayadi.
- Ota-ona, ustoz va mahalla kattalariga nisbatan **mehr-muhabbat** va **hurmat** ortadi.
- Yaxshi odatlarga intilish paydo bo'ladi.

- O‘ziga va boshqalarga hurmat hissi kuchayadi.

3. Amaliy ko‘nikmalarda:

- O‘quvchi odob-axloq qoidalarini kundalik hayotda qo‘llaydi.
- Yaxshi xatti-harakatlarni odatga aylantirishga harakat qiladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Sinfda ijobiy muhit shakllanadi: o‘zaro yordam, hurmat, birdamlik.
- Jamoada yordam, hamkorlik va hurmat muhiti shakllanadi.
- O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida **qadriyatlarga asoslangan muloqot** paydo bo‘ladi.

Metapredmet: bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiy ko‘nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “Bizning xulqimiz (Odob – tarbiyaning mevasi)” darsida:

- Bola odob haqida **maqollar va ertaklar aytadi** (adabiy fan),
- Film tomosha qilib, **taassurotini aytadi** (san’at),
- So‘ngra bu harakatlar haqida **fikr bildiradi** (muloqot),
— bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir**.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari.
www.milliytarbiya.uz



Dars davomiyligi: 45 daqiqa.



Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.



Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi - o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga tasviriyl materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.